

## “DILBAR - DAVR QIZI” ASARIDA O‘XSHATISHLAR

**N.I. Shadmanova**

Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Xalq tili benihoya boy. Oybek xalq tilidan foydalanishda alohida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan ijodkorlardan sanaladi va uning yaratgan obrazlarida hayotiylik mujassamlashgandir.*

*Kalit so‘zlar:* o‘xshatish, kabi, singari, qadar, obrazlar portreti va ruhiy holatida o‘xshatishlar.

### АННОТАЦИЯ

*Народный язык очень богат. Ойбек — один из художников, взявших на себя особую ответственность за использование просторечия, и его образы полны жизненной силы.*

*Ключевые слова:* аналогия, как, словно, до, портрет образов и аналогии психического состояния.

### ABSTRACT

*The vernacular is very rich. Oybek is one of the artists who took a special responsibility for the use of the vernacular, and his images are full of vitality.*

*Keywords:* analogy, like, such as, up, portrait of images and analogies in mental state.

### KIRISH

O‘xshatish shunday badiiy san’atki, unda narsa, voqea, hodisa, tushunchani ikkinchi bir shu xildagi umumiylikka ega bo‘lgan narsa, voqea, hodisa va tushunchaga qiyoslanadi, o‘zaro solishtiriladi.

O‘xshatish predmetlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshash tomonlarini ko‘rsatish orqali yoki *kabi, xuddi, go‘yo, singari, misoli, o‘xshash, yanglig‘* kabi leksik vositalar hamda, *- dek(day), - simon, - cha* grammatik vositalar yordamida yuzaga keladi.

Yozuvchi va shoirlar o‘xshatishdan o‘z fikrlarini aniq, jozibali va yaqqol ifodalash, o‘z niyatlarini o‘quvchiga tez anglatish, tabiat hodisalarini tasvirlash, obraz yaratish vositasi sifatida foydalanadi.

Ulug‘ shoir Oybek dostonlari tilida obraz yaratishning muhim vositalaridan biri o‘xshatishdir. Oybek o‘xshatish usuli orqali, ya’ni hodisa va predmetning qorong‘i tomononi o‘zida to‘laroq aks ettirgan boshqa bir predmetga o‘xshatish orqali fikrni ravshanlashtiradi, obrazni tiniqlashtiradi, tasvirga rangdorlik, aniqlik kiritadi. Oybek

"Dilbar - davr qizi" poemasida Qosim xaskash va Dilbarning portretini chizishda, ularning va boshqa obrazlarning ruhiy holati va ichki dunyolarini ochib berishda his-tuyg'ularini anglatishda o'xshatishning leksik vositalaridan, ayniqsa, "*kabi*" vositasidan mohirona va unumli foydalangan. Dostonda 20 dan ortiq o'xshatishlar "*kabi*" leksik vositasi orqali yuzaga chiqqan.

Leksik vositalar quyidagi so'zlar yordamida hosil qilingan:

1. "*Kabi*" yordamida:

Katakcha hovlida bu  
Qamal bo'lgan quyoshni,  
Ba'zan urar hayollar  
Qora bir bulut kabi.

2. "*Singari*" yordamida:

Tajribali bir kampir  
Singari qalbi yara,  
Boqdi yetimchasini.  
Bag'rida ovutardi.

3. "*Qadar*" yordamida:

Dilbar tezda to'pladi  
Yoshlarni, temir qadar  
Bir kollektiv yasadi.

4. "*Naq*" yordamida:

Sezilmas hordiq aslo,  
Qadamlari - naq temir  
Ko'zlari jonli, shahlo  
Konlarda quyosh erur.

"*Xuddi*" so'zi o'xshatish asosi bo'lib kelgan so'zdan oldin kelib "*kabi*" bilan birgalikda qo'llangan.

Qalbi xuddi charx  
Kabi guvullardi...  
Nutqi go'zal va toshqin  
Sevib tinglar hamma ko'z  
Har so'zi xuddi choqin  
Ruhlarning chuqur qora  
Upkunlarin portlatar.

Grammatik vositalar yordamida yuzaga kelgan o'xshatishlar dostonda ko'p uchraydi.

– *dek* qo‘shimchasi yordamida:

Ko‘chalar bo‘sh, qop- qora  
Yaproqlarni shamollar,  
Boladek qiqirlatar,  
O‘par, bosar quchoqqa.  
Osmonni qoraytirgan  
Qora devning haybati  
Tog‘dek cho‘zilib yotgan  
Sariqdevning savlati.

– *day* yordamida:

Onaning sevgisiga  
Qoniqmagan Dilbaroy,  
Go‘zal, nozik, ingichka,  
Edi yosh bir novdaday...

Adabiyot insonga estetik ruh berish vazifasini bajarar ekan, o‘xshatish badiiy san‘at vositasi sifatida e’tirof etilib, ushbu vazifaning bajarilishida alohida o‘rin egallaydi. Xalqimizning ardoqli yozuvchisi va shoiri Oybek ham bundan mohirona foydalanganligini tahlilga tortganimiz birgina dostoni chegarasida ko‘rib chiqdik, xolos.

### **XULOSA**

Dostonda keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, shoir Oybek tilidagi o‘xshatishlar hayotni nozik kuzatish orqali ijod etilgan. Shuning uchun shoir o‘xshagan narsa bilan o‘xshatilgan narsa orasida o‘quvchi kutmagan munosabatni topgan va o‘quvchini bunga ishontira olgan.

### **REFERENCES**

1. Oybek ijodining manaviy-ma’rifiy ahamiyati. Ilmiy-amaliy anjuman materialari. Karshi-2005.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 6. 474-476 s.
3. Karimov N., Oybek, T., 1985;
4. Karimov N., Oybek gulshanida qolgan g‘unchalar, T., 1985.